

SHOHRUX MIRZONING ALEKSANDR I GA QO'YGAN TALABI

Asatov Yunusjon Bekzod o'g'li

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Temuriy zoda Shohrux Mirzoning uchinchi Ozarbayjon tomon yurishi davomida Gurjiston (Gruziya) hukmdori Aleksandr I bilan xalqaro diplomatik aloqalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *Ajam; Aleksandr; Demetre; Temuriylar; Trabzon; vasatiy; Rum imperiyasi; Shirvon; Luriston; Gilon; Qorabog'; Gurjiston; Shohrux Mirzo.*

KIRISH

Sohibqiron Amir Temurdan so'ng parchalanib ketgan saltanatni tiklagan Sulton Shohrux tarixiy manbalarda islom ahkomlariga qat'iy rioya qiluvchi, shariat ahkomlarini himoya qiluvchi shaxs sifatida tasvirlanadi. Shu bilan birgalikda Shohrux shaxsida siyosatdonlarga xos ayyorlik, uzoqni ko'ra bilish xislati ham ko'zga tashlanadi. Shohrux nizolarni hal qilishda kuch ishlatishdan ham ko'ra, diplomatik vositalarni qo'llashni ma'qul ko'rardi, uning o'zi ham layoqatli diplomat edi. Muzokaralar natijasiz tugagan taqdirdagina harbiy yo'l bilan ishni bitirar edi.

Shohrux Mirzo Temur vafotidan so'ng qo'ldan chiqqan viloyatlarni birin ketin bo'ysundiradi, 1420-yilga kelib, Shohrux saltanatning aksar qismini qo'l ostida birlashtirishga erishgan, endigi e'tiborini Mironshoh Mirzo (1366-1408) o'ldirilgandan keyin qo'ldan chiqqan viloyatlar Ozarbayjon, Iroqi Ajamga qaratadi. Ozarbayjonga ilk yurish 1420-yilning avgustida boshlanadi, Temuriylarning ittifoqchisi bo'lgan oqqo'yunli hukmdori bo'lgan Qora Yuluq Usmon (1403-1435) Shohruxga yuborgan maktubida Onado'li beklari, Vizantiya va Trabzon — Rum imperatorlari, Gurji maliklari, Shirvon, Gilon va Luriston hokimlari Shohruxni kutayotganligi bildirgandi.[4:66]. Bu yurishda ham Shohrux zafar quchdi, Ozarbayjon hokimligini qoraqo'yunlilarning azaliy dushmani oqqo'yunli Usmonning o'g'li Alibekka berib, 1421-yilda oktabrda Xurosonga qaytadi. [4:68] 1434-yilning 5-noyabrda Shohrux Ozarbayjon tomon uchinchi yurishni boshlaydi. [1:48] Bu yurish davomida deyarli yirik janglar bo'lmadi. Shohrux 1435-yilning 12-noyabrda Qorabog'ning Para-Kursh (Ozarbayjon) mavzeida qishlash (Temurbek ham Qorabog'da bir necha bor qishlagan) qarorini beradi. [1:59] Temuriy o'rdu Qorabog'da ekan, davlat ishlarini tartibga solishni boshlaydi, Shohrux Muhammad Dashtiyni Gurjistonga yo'llab, avvalroq kelishilgan yo'l-yuriqni tasdiqlaydigan xabarni

yo'llagan edi. Gurjiston qiroli Aleksandr I (1412-1442) Muhammad Dashtiyini yaxshi kutib olib, boj, xiroj to'lashga rozi bo'ladi. Albatta gurji hokimlari Amir Temurning Gurjistonga 1386-1403-yillardagi halokatli bosqinlarini unutishmagan, yana bir bor Temuriylar bosqini takrorlanishini istashmas edi, o'sha davr geosiyosiy vaziyati-da gurji hukmdori foydasiga emas, balki Shohrux foydasiga ishlar edi. Temur, undan so'ng qoraqo'yunlilarning gurjilar ustiga yurishlari davlatni zaiflashtirgan, XIV asrning 40-yillari boshida boshlangan birlashtirish siyosatiga qattiq zarba berib, davlatchilik asoslarini kuchsizlantirgan edi. Temuriylar yoxud qoraqo'yunlilar bo'ladimi, bu sulolalar uchun qudratli Gurjistondan ko'ra, kuchsiz gurji qirolligi ma'qul edi, boisi Temuriylar ham, qoraqo'yunlilar ham musulmon sulolasi, saltanati bo'lsa, Gurjiston nasroniy knyazligi edi, gurji qirolligi mabodo kuchayib ketsa, saltanatlarning gurji qirolligi bilan chegaradosh hududlari xavf ostida qolar, bu esa ikkala sulola uchun-da ortiqcha xarajat va kuch talab etardi. O'rta asrlarda yashagan arman tarixchisi T'ovma Metsobets'i' o'z asarida Temurni ne qadar qoralamasin, u haqida yozar ekan, nafratini har so'zda sezdirmasin, Shohrux Mirzo haqida yozar ekan, uni «tinchliksevar», «so'fiy», «Sharq podshohi» deydi va Shohrux shaxsiga ijobiy yondashadi.[7] Sababi Shohruxning Ozarbayjonga qilgan uch yurishi Kavkaz xalqlari uchun halokatli oqibatlarga olib kelmagan, undan tashqari qoraqo'yunlilar yerlik aholi – gurji, armanlarga zulm qilgan edi, ular ham bundan bezgan, buni T'ovma Metsobets'i'ning yozganlaridan ham sezish mumkin. 1435-yil Shohrux Mirzo qoraqo'yunlilar yurishidan so'ng talon taroj qilingan Qavzinni ko'radi va ahvol nihoyatda yomonligini ko'rib, ahvolni yaxshilash uchun qaror beradi. Ozarbayjon va Iroqi Ajamda qurilish ishlarini tiklash, bo'sh yotgan yerlardan foydalanishga chaqiradi, dalalar va bog'larda ishlagan kishilardan 5 yilgacha soliq olmaslik haqida farmon chiqaradi.[4:130] Aleksandr I Muhammad Dashtiyga qo'shib ikkinchi o'g'li Dimidr (Demetre 1413-1453) va katta miqdorda peshkashlarni Shohrux Mirzo huzuriga yo'llaydi. Bu uning vassallikni tan olishini bildirar edi. Elchilik hay'ati qishlov manzili bo'lmish Qorabog'ga yetib kelgach, Dimidr Shohrux mirzo qabulida bo'ladi. [1:60] Shohrux Mirzo «Gurjiston viloyatida asirlikda bo'lgan bir guruh musulmonlar Islom mamlakatiga qaytib kelgunlariga qadar, Dimidr a'lo o'rduda turatursun» deb farmon beradi. Shohrux Mirzo Gurjistonga yuborgan vakillari vazifani a'lo darajada bajarib kelgandan so'ng, zindondagi musulmonlarni ozod qilish masalasini ko'ndalang qo'yadi. Ehtimolki elchilikdan kutilgan natija olinmaganda Gurjiston tomon yurish qarori berilardi. Qarorgohda Dimidni ushlab turishdan maqsad Aleksandr I ga bosim o'tkazish, sarkashlik qilmasdan Shohrux talabini so'zsiz bajartirish edi, aniqrog'i Dimidr qarorgohda Aleksandr I foydasi ters ishlaydigan «murtat» edi. Aslini olib qaraganda Aleksandrning boshqa iloji ham yo'q edi, Shohruxga rad javobini bergan taqdirda ham unga qarshi chiqadigan kuchi-da yo'q edi. Qudratli qo'shin bo'lishi

uchun, albatta qudratli iqtisod bo'lmog'i lozim, biroq ketma-ket bosqinlar oqibati saltanat iqtisodi ham vayron bo'lgandi. Shohruxning islom dunyosidagi eng buyuk hukmdor bo'lmoq orzu-ishtiyoqi butun qo'shnilari va O'rtasharq davlatlari tomonidan anglangan edi, [4:74] o'z davrida «xalifatullahi- fil-arz» unvonini olgan, [5:537] Abdurazzoq Samarqandiyning e'tirof etishicha sakkiz yuz yillikning mujadidi bo'lgan [2:96] Shohrux asirlikdagi musulmonlarni ozod qilishi uning musulmon sulton sifatidagi burchi, shu bilan birga bu ishi unga yaxshigina obro' keltirar edi. Shu maqsadda 1436-yil 16-fevralida Hamza ibn Muhammad Fazlullohni musulmon asirlarni olib kelish uchun Gurjiston tomon yuboradi. [2:295] Aleksandr I Shohruxning talabini qabul qilgan holda musulmon asirlarni ozod qilib, Temuriylar saltanati tomon yuboradi. Ular yetib kelishgach, Shohrux Mirzo Dimidrga izzat-ikrom ko'rsatib, yurtiga qaytarib yuboradi. [1:61; 3:143] Shohrux Mirzoning Gurjiston bilan aloqalarida ko'zga tashlanadigan yana bir e'tiborli jihati uning bag'rikenglik, tolerantlik siyosati edi. Ayrim tarixchilar uni mutaassiblikda ayblashsada, uning siyosatida mutaassiblik sezilmaydi, fikrimizcha balki uni mo'tadil, vasatiy hukmdor deb atash to'g'ri bo'ladi.

Xulosa

Shohrux davrida ham Temuriylar saltanati Yevrosiyo materigidagi eng yirik kuch markazlaridan biri sifatida qolaverdi, Shohrux Mirzoning Islom olamida yetakchi bo'lish orzusi u yuritgan siyosatga ham ta'sir etmay qolmagan. Shohruxning sulhparvarligi, tinchliksevar siyosati tufayli mamlakatda osoyishtalik qaror topdi, saltanatning iqtisodiy-madaniy qudrati yanada oshib, ilm-fan ravnaq topdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn II jild, 2 va 3 qismlar 1429-1470-yil voqealari // fors tilidan tarjima va izohlar muallifi A. O'rinboev; Mas'ul muharrirlar: Aziz Qayumov, Muhammad Ali; T.: O'zbekiston-2008. 832-bet.
2. Fasih Ahmad ibn Jaloliddin Muhammad al-Xavofiy. Mujmali Fasihiy // fors tilidan tarjima, kirish va ko'rsatkich va izohlar muallifi: D. Yusupova; T.: Fan-2018, 544-b
3. Həsən bəy Rumlu. Əhsənüt-təvarix (Tarixlərin ən yaxşısı) // Fars dilindən tərcümə və şərhlər: O.Əfəndiyev, Namiq Musalı; Kastamonu: Uzanlar, 2017, 661 s.
4. Ismoil Aka. Buyuk Temur davlati // T.Qahhor tarjiması. T.: Cho'lpon-1996. 160
5. Zeki Velidi Togan. Büyük türk hükmdari Shahruh. //Eminönü Halkevinde verilen konferanstir. 1948. 520-538-b.
6. Ziyodulla Muqimov. Amir Temur hamda Temuriylar davlati va huquqi // T.:Navro'z-2020, 292 b
7. <https://www.attalus.org/armenian/tm1.htm>
8. Shodmon Vohidov, Alisher Qodirov. Sharqning mashhur sulolalari // T.: Akademnashr-2013. 624 b